

XX ASRDA KOREYA BADIY ASARLARIDA AYOLLARINING GENDER TENGLIK MUOMMOLARINI YORITILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653467>

Laylo Usarova

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti v.b
Filologiya fanlari falsafa doktori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada koreys ayollarining emansipatsiyasi masalasini yorituvchi adabiyotlar yordamida har tomonlama o‘rganishdir. Koreya jamiyatida ayollar emansipatsiyasining shakllanishi va uning paydo bo‘lish sabablari. Pak Van Soning “Dadil ayol” romanini misolida muammoni tahlil qilish;

Kalit so‘zlar: Koreya, koreys adabiyoti, XX asrda Koreyada emansipatsiya.

ABSTRACT

This article is a comprehensive study of the emancipation of Korean women with the help of literature. The formation of female emancipation in Korean society and the reasons for its occurrence. Analysis of the problem on the example of Pak Van Son's novel The Brave Woman;

Keywords: Korea, Korean literature, emancipation in 20th century Korea

АННОТАЦИЯ

Данная статья представляет собой комплексное исследование эмансипации корейских женщин с помощью литературы. Становление женской эмансипации в корейском обществе и причины ее возникновения. Анализ проблемы на примере романа Пак Ван Сона «Отважная женщина»;

Ключевые слова: Корея, корейская литература, эмансипация в Корее XX века.

KIRISH

Koreya jamiyatidagi mentalitet va an'analar mavzusiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda koreys mafkurasi uzoq vaqt davomida konfutsiylikka asoslangan jarayonni kuzatish mumkin. [1;17] Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadim zamonlarda ham, Xitoydan Koreyaga kirib borganligi bois u yangi hududda

mukammal tarzda “ildiz oldi” va asta-sekin Koreya jamiyatining barcha sohalariga, siyosatdan tortib, ijtimoiy tuzilishga qadar kehg yoyildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv jarayoni barcha davlatlar qatori jamiyatining barcha jabhalarini qamrab olgan yigirmanchi asrda Koreyaga ham yetib kelishi bilan konfutsiylik asta-sekin o‘z o‘rnini yo‘qotib, ta’siri ancha zaiflashib bordi.

Biroq, bu tizim koreyslar ongiga shunchalik mustahkam o‘rnashib olgan ediki, rasmiy ravishda, Koreya davlatining mafkurasi bo‘lishni to’xtatgan bo‘lsada Koreya jamiyatida o‘z nazoratini yo‘qotmagan edi. Bunga yaqqol misol sifatida koreys ayollarining ahvoli hamon juda qiyin va ziddiyatli kechardi. Jumladan, Choson davrida (1392-1910) ayollar patriarxal konfutsiy tuzumi me’yorlariga mutlaq bo‘ysunib, o‘z taqdirlariga muloyimlik va sabr-bardosh bilan chidashga, barcha mashaqqat va qiyinchiliklarga indamay bardosh berishga majbur edilar. [3;177] Bunday vaziyatga qaramay, aynan shu davrda ayollar ijodi gullab-yashnadi. Koreya tarixi bizga beqiyos iste’dodlari bilan porlagan va jamiyatning barcha sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishgan ayollarning ko’plab yorqin misollarini taqdim etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ayollarning ko’rsatma va qoidalarga to’liq itoatkorlik holati XX asrning boshlariga qadar davom etdi. Ayollar noroziligi davom etgan vaziyat uzoqqa cho’zilmadi. Janubiy Koreya 1948 yilda konstitutsiyasiga erkaklar va ayollarning teng huquhlilik moddasini qabul qilinishi bilan muvoffaqiyatli yakun yasaldi. [2; 357]

Aftidan, endi ularning taqdiri butunlay o’zgargandek tuyuldi, chunki hukumat ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlashga harakat qildi: ayollarning maqomi bilan bog’liq muammolarni hal qilish uchun turli tashkilotlar tuzildi, ular ham ta’lim olish huquqini oldilar. Kasb tanlashda bo’lgan erkinlk tamoyili yo’lga qo’yildi.

Ammo, Koreya hukumati hujjatlarda ayollarning gender tengligi borasida juda ko’p o’zgarishlar kiritgan bolsada, aslida boshqaruv faoliyatida hali-hanuz patriarxal tizim saqlanib qolgan edi. Mana shu kabi muommolar dabiyotda o‘z aksini topadi. Xotin-qizlarning o‘zini anglash, jamiyatda munosib o‘rin egallahsga bolgan intilishlari albatta ko’pchilikka yoqmas edi. Ular ayollarning uyda o’torib bolalarga g’amxo’rlik qilishi, uy-ro’zg’or ishlari, erining aytganlarini so’zsiz bajarishni xohlashardi. Oiladagi tushunmovchiliklar, ayollarning o‘z menini topishga intilishi adabiyotlardagi asarlarda o‘z aksini topa boshladи.

O’sha davrning ko’plab yozuvchilari bunday feministik g’oyalardan ilhomlanib, mavjud tuzumni tanqid qilgan, ayollarni o‘z huquq va erkinliklari uchun kurashda taslim bo’lmaslikka chaqiradigan ko’plab asarlarini yarata boshlashdi. Gong Ji

Yongning “Mening singlim Bong Soon”, Yun Xi Kyungning “Duet”, Shin Kyung Sukning “Garmoniya turgan joyda” kabi bir qancha asarlar yuzaga kelishiga sabab bo’ldi. Mana shunday asarlar qatorida Park Van Soning "Dadil ayol" romani yaratildi.

Bu roman xotin-qizlarga bagishlanib, ularni jamiyatida teng huquqlilik rolini oshirishga qaratilgan asar deya e’tirof etildi. Roman mazmuni shunchaki muallifning g‘oyasi emas, balki real voqelik asosida yaratilgan bo’lib, unda Pak Van So fantastik qahramonlar misolida jamiyatdagi dolzARB muammolarni ochib beradi. Erkinlik yo'lida har qanday to’siqlar, xatolar bo’lishi tabiiydir. [1; 230] Roman qahramonlarining hayoti muvaffaqiyatsizlik va xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun kurashayotgan ayollarga bag'ishlangan batafsil yo'riqnomaga o'xshaydi. Adib o'z qahramonlarini jasur va bardoshli bo’lib oldinda turgan har qanday muommolardan o’z aql-zakovatlari bilan yengib o’tishga chaqiradi. Roman syujeti o‘z erkinligi va mustaqilligini hamma narsadan ustun qo‘yan yangicha qarashdagi Yong Ji ayol obrazidir. Uning orzusi er-xotinning oilada teng huquqli bo’lishi bilan boshlanadi. Ammo amalda bunday emas ekanligini tushunib etadi. Garchi Young Ji o'z qarashlarida muvoffaqiyatsizlikka uchragan bo’lsada, orzularidan butunlay voz kechmaydi. [1;149] O’zining xato va kamchiliklaridan xulosa chiqargan ayol, yana kurashish uchun o’zida kuch topa oladi.

XULOSA

Bugungi kunga kelib, koreys ayollarining emansipatsiyasi patriarxal tizim ustidan to’liq g’alaba qozondi, deb ishonch bilan aytish mumkin emas. Masalan, bir tomondan, ayollar erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega, ular o'z hayotlarini boshqarishga qodir deya ayta olamiz. Zamonaviy Koreya jamiyatida ayollarning emansipatsiyasi zarurligini ta'kidlashda davom etadiganlar bor.

REFERENCES

1. Пак Ван Со. Стоящая женщина Сеул: Чульпан сэгеса, 1985 17-239 с
2. Курбанов С.О. Курс лекций по истории Кореи: с древности до конца XX века. СПб., 2002. 680 с.
3. Saydazimova U.T., Choy So Yong va b. “Zamonaviy koreys nasri antologiyasi”. – Toshkent, 2014.
4. Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar. –Seoul, Think book, 2015.
3. Солдатова М.В. Становление национальной прозы в Корее в первой четверти XX века. Владивосток: Изд-во Дальнее, ун-та, 2004. 377 с.
3. Ли Кю Тхэ. Структура сознания корейцев: кто такой кореец? Сеул: Синвонмунхваса, 2000. 304 с

4. Шипаева В.И. Южная Корея в системе мирового капиталистического хозяйства. М.: Мир, 1986. 283 с.
5. Smith Anthony D. The Ethnic Origins of Nations. Wiley-Blackwell, 1988. 329 p.
6. Leoussi Athena S. Nationalism and Ethnosymbolism: History, Culture and Ethnicity in the Formation of Nations / Athena S. Leoussi, Steven Grosby. Edinburg University Press, 2007. 353 p.
7. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
8. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШОДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
9. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДОВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
10. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
11. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
12. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
13. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранный филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.
14. Furkatovna, B. I. (2021). DISCURSIVE-PRAGMATIC FEATURES OF KOREAN AND UZBEK ARTICLES ON THE CONCEPT OF "/MAN" 사람. International Journal of Management, 12(2).
15. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA’NOSIGA KO’RA TURLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
16. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING" DAFN ETILGAN GIGANT" ASARIDA FANTASTIK G’OYALAR TALQINI. Интернаука,(28-2), 67-68. 9. Амануллаева, КМ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ КОНЦЕПТЕ И В ЦЕЛОМ. ББК 74.48 Р, 76, 271

17. Ачилова, О. . (2020). Средства выражения содержания приказа в японском языке. Иностранный филологический журнал: язык, литература, образование, (1) (74), 62–65. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1274
18. Ачилова, О. (2016). Использование императивной формы в японском языке. Иностранный филологический журнал: язык, литература, образование, 1(1) (58), 88–90. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/185